

O‘TKIR HOSHIMOV VA “IKKI ESHIK ORASI”

Narzullayeva Muxayyo Iftixor qizi

Mustaqil izlanuvchi

E-mail: muxayyonarzullayeva1@gmail.com

ANNOTATSIYA

O‘tkir Hoshimov hayoti va bosgan yo‘li, uning asarlaridagi mazmundorlik, “Ikki eshik orasi” qahramonlari ta’rifi, buyuk ijodkorga bo‘lgan e’tibor

Kalit so‘zlar: xalq yozuvchisi, urush va urushdan keying davr, serqirra ijodkor, “Mehnat shuhrati” ordeni, muharrir o‘rinbosari, “Bahs” ko‘rsatuvi, “To‘rt maktub” hikoyasi

Haqiqiy asar shunchaki yozilayvermaydi, haqiqiy asarlar farzand kabi tug‘iladi.

(O‘tkir Hoshimov)

O‘zbekiston xalq yozuvchisi, “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni sohibi hisoblanmish O‘tkir Hoshimov 1941-yil 5-avgustda Toshkentdagi Do‘mbirobod qishlog‘ida tug‘ilgan. Yozuvchining bolaligi urush va urushdan keyingi mashaqqatli davrlarga to‘g‘ri keldi. Otasi Atulloxon Hoshimov zamonaviy adabiyot va gazetalarga ixlosi baland, o‘ta haqparast, nohaqlikni ko‘rsa yonib ketadigan shaxslardan edi. Onasi Hakima Hoshimova nihoyatda mehribon ayol edi. Serqirra ijodkor onasini shunday tasvirlaydi: “Oyim qancha soda bo‘lsalar, shuncha donishmand ham edilar. Iloji boricha hammaga yaxshilik qilishni xohlar, o‘ta oqko‘ngil, gina-qudratni bilmaydigan ayol edi”. “Mehnat shuhrati” ordeni egasi O‘tkir Hoshimov Toshkent Davlat universiteti jurnalistika fakultetida tahsil olgan. 1966-yildan o‘z ish faoliyatini boshlagan bu yozuvchi turli yillarda “Toshkent oqshomi” gazetasida bo‘lim mudiri, G‘afur G‘ulom nashriyotida bosh muharrir o‘rinbosari,

“Sharq yulduzi”, “Teatr” jurnallarida bosh muharrir bo‘lib ishlagan. Noyob iste’dod sohibi 80-yillar oxiri, 90-yillar boshlarida O‘zbekiston televideniyasida dolzarb mavzular ko‘tarilgan mashhur “Bahs” ko‘rsatuvini olib borgan. O‘tkir Hoshimov hattoki pochtada xat tarqatuvchi bo‘lib ham ishlagan. Aynan mana shu ish bo‘lajak yozuvchini oddiy odamlarning kitobdagagi hayotidan butunlay boshqa turmushga oshno qilgan. Uning birinchi kitobi 1962-yilda “Po‘lat chavandoz” nomi bilan chop etilgan. “To‘rt maktub” hikoyasi asosida “Cho‘l havosi” qissasi, shundan so‘ng dunyo yuzini ko‘rgan “Odamlar nima derkin?”, “Shamol esaveradi”, “Bahor qaytmaydi”, “Qalbingga quloq sol”, “Dunyoning ishlari” kabi asarlari unga shuhrat keltirgan. “Nur borki, soya bor”, “Ikki eshik orasi” romanlari, “Muhabbat”, “Dehqonning bir kuni”, “Urushning so‘ngi qurban”, “O‘zbek ishi” kabi asarlari o‘zbek hikoyachiligiga salmoqli hissa bo‘lib qo‘shilgan. O‘tkir Hoshimovning “Xazon bo‘lgan bahor”, “To‘ylar muborak”, “Vijdon dorisi”, “Inson sadoqati”, “Qatag‘on” kabi drama va komediyalari respublika teatrlari sahnalaridan munosib o‘rin egallagan. “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” kitobi ijtimoiy-ma’naviy hayotda muayyan iz qoldirgan. Uning to‘ylar muborak va “Hazon bo‘lgan bahor” asarlari asosida baddiy filmlar suratga olingan. Bu yozuvchi Ernest Heminguyey, Konstantin Simonov, Mustay, Karim, Berggolts, Sveyg, Shunkshin kabi adiblar asarlarini o‘zbek tiliga mohirona tarjima qilgan. Ijodkor 80-yillar publistikasi rivojiga salmoqli hissa qo‘shtan yozuvchilardan biridir. “Uning odob-axloq, ma’naviy olam, milliy qadriyatlarni dadil yoritgan ocherk va teleko‘rsatuvlari bu davrning barkamol mevalaridir”-deyiladi e-adabiyot.uz.veb sahifasida. O‘zbek adabiyotining durdonalaridan biri hisoblanmish O‘tkir Hoshimov “Dunyoning ishlari qissasi uchun Oybek nomidagi hamda “Ikki eshik orasi” romanini uchun Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga sazovor deb topilgan.

Serqirra ijodkorning “Ikki eshik orasi” asari o‘zbek adabiyotida alohida o‘rin tutadi. Asarda ikki jahon urushi davri ellik million odamning uvoliga qolgani, shundan yigirma olti millioni bizni insonlar bo‘lgani haqida eslaydi. O‘tkir Hoshimovga ilhom bergen, yozishga undagan jihatlar haqida ham so‘zlab o‘tgandi. Yozuvchi “Ikki eshik orasi” romanini 1982-yilda oilasi bilan Petsundagi Yozuvchilar ijodiy uyida dam olish

paytida yozishni boshlagan. Bir kuni turmush o‘rtog‘i O‘lmasxon Hoshimova farzandlari bilan dengiz bo‘yidan sayr qilib qaytar ekan, xonada ijodkorning 10 kundan beri yozganlarini yirtib tashlayotganiga guvoh bo‘ladi. Yuz betlik qo‘lyozmani saqlab qolishga uringan O‘lmasxon Hoshimovaning aytishicha “Ertaga kuz” sarlavhali o‘sha qoralamalar oradan 3 yil o‘tib “Ikki eshik orasi” romaniga aylangan. Uch yuz ming nusxada o‘n martadan ortiq nashr qilinib turli davlat tillariga tarjima qilingan. Romanda ayollar obrazi ham ajoyib tarzda tasvirlangan bo‘lib, ularning orasida Qora amma qahramonining o‘ziga xos tabiatini bilan ajralib turadi. Uning aksariyat sifatlari romanning “Qora amma hikoyasi” qismida namoyon bo‘ladi. Qora amma – mehribon, sodda, bardoshli va jafokash ayol. Uning obrazida urush davridagi o‘zbek onalarining siymosi mujassam bo‘lgan. Boshiga tushgan barcha ko‘rgilklarni sabr-bardosh bilan yengib, o‘zida yashash uchun kuch topadi. Bechora Robiya taqdirining achchiq qismatiga ilojsiz ko‘nadi. Insonlarning murakkab taqdirini maromiga yetkazib tasvirlangan roman katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Bugungi kunda O‘tkir Hoshimovning asarlari o‘zbek adabiyotining durdonalaridan biridir. Uning xotirasi mangu dilimizda!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

- 1.<https://saviya.uz>
- 2.<https://forum.ziyouz.com>
- 3.<https://m.facebook.com>